

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 348 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUprofessori  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musayeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Cham Tat Huei**, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "EI-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Ali Kopak (Али Кўнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari .....	16
<b>Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna</b>	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari .....	26
<b>Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li</b>	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili .....	37
<b>Turgunov Odilbek Maripovich</b>	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi .....	41
<b>I. Axmedov</b>	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari .....	46
<b>Xusanov Murodjon Sunnatullayevich</b>	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi .....	54
<b>Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li</b>	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish .....	59
<b>Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich</b>	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni .....	65
<b>Baymanova Mavlyuda Djurayevna</b>	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan .....	70
<b>Alimov Damirjon Odilovich</b>	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni .....	76
<b>Jusupova Anjim Tansiqbaevna</b>	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	82
<b>Sohibjamol Abirkulova</b>	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish .....	87
<b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b>	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari .....	92
<b>Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li</b>	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi .....	97
<b>Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli .....</b>	
<b>J. J. Yaxshilikov</b>	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области .....	109
<b>Мусабоев Рустам Алижонович</b>	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	114
<b>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich</b>	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish yo'llari .....	118
<b>Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich</b>	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы .....	122
<b>Раупова Муҳлисахон Ибраҳимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Ҳақимова Нигора Бахтиёрвна</b>	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
<b>Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon</b>	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
<b>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</b>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
<b>Toyirov Yunus Alamovich</b>	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
<b>Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich</b>	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
<b>Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li</b>	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
<b>Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna</b>	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
<b>Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich</b>	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....	162
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari .....	170
<b>Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot</b>	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level .....	175
<b>Khudayorova Munira Omonboy kizi</b>	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari .....	182
<b>Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi</b>	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari .....	187
<b>Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna</b>	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
<b>Razzoqov Bexzod Gofurovich</b>	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
<b>Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li</b>	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
<b>Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich</b>	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili .....	208
<b>Ashrafjon Elov</b>	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati .....	214
<b>Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida.....	218
<b>Umarov Davron Shavkatovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari .....	223
<b>Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li</b>	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari.....	227
<b>Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich</b>	

Experience of foreign countries in youth labor market research .....	231
<b>Asqarova Muhabbat Ibraximovna</b>	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash .....	235
<b>Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi</b>	
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili .....	241
<b>Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari .....	247
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
<b>Буранова Лола Вахобовна</b>	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish.....	263
<b>Abdurahmanov Otabek Patidinovich</b>	
"To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar" .....	270
<b>Otaxanova Umida Olim qizi</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari.....	275
<b>Sayfulina Alfira Feratovna</b>	
Oliy va xususiy ta'lim muassasalarida ta'lim menejmentini qo'llash hamda alohida mexanizmlarining tahlili.....	281
<b>Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Narzullayeva Gulchehra Salimovna</b>	
Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarishning nazariy asoslari .....	287
<b>Yuldoshev Ulug'bek Asqar o'g'li</b>	
Asosiy vositalarga oid BHXS va MHXSlar maqsadi va amaliyotda qo'llanilishi.....	293
<b>Nematova Dilnoza Azamatovna</b>	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va omillari.....	297
<b>S.M.Xolxo'jayev</b>	
The implementation of eco-tourism in supporting the optimality of tourism sector (case study in Indonesia and Uzbekistan) .....	302
<b>Khalimova Mohirabonu, Alfira Sofia, Diana Igorevna Stepanova</b>	
Innovations in export logistics for Uzbekistan's produce.....	310
<b>Sevinch Makhmutullaeva</b>	
Tijorat banklarida ichki audit faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati .....	314
<b>Yo'ldashov Adham Tavboyevich</b>	
Налоги и их роль в доходах бюджета Республики Узбекистан.....	319
<b>Умида Юлдашева</b>	
Tijorat banklarining daromad manbalarini raqamli texnologiyalar orqali kengaytirish yo'llari.....	323
<b>Ahmedov Komron Muhammadaliyevich</b>	
Цена пруденциальной политики Центрального банка Узбекистана.....	328
<b>А.М. Абдукадиров</b>	
Tax history .....	338
<b>Mirhayotov Xusniddin</b>	
Анализ состояния транзитных перевозок железнодорожного транспорта .....	341
<b>Саримсакова Малохат Хикматуллаевна</b>	
Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanish salohiyatini baholash konsepsiyasi va uni baholash.....	344
<b>Israilov Rustam Ibragimovich</b>	
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'muriyatchiligini tashkil etishning ayrim masalalari.....	348
<b>Idirisov Alisher Otajonovich</b>	



# YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TASHKIL ETISHNING AYRIM MASALALARI

**Idirisov Alisher Otajonovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish, jumladan, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartib-qoidalari, shuningdek, soliq bazasini kengaytirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, soliq solish obyekti va bazasi, soliq stavkalari, foydali qazilmalar guruhi.

**Abstract:** This article examines the issues of creating tax administration for land use, including the procedure for calculating and paying taxes, as well as expanding the tax base.

**Key words:** Subsoil use tax, tax base and object, tax rates, group of minerals.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы создания налогового администрирования за землепользование, включая порядок исчисления и уплаты налогов, а также расширения налоговой базы.

**Ключевые слова:** Налог на недропользование, налоговая база и объект, налоговые ставки, группа полезных ископаемых.

## KIRISH

Aytish joizki, hozirgi kunda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari davlat budjetining daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda yerosti boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir, fuqarolar xalqimizning tabiiy merosini asrab-avaylashi shart bo'lib, tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinishi qonunchilikda huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu boisdan ham fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni saqlash sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi [1].

Yerosti boyliklari va undan foydalanganlik uchun undiriladigan to'lovlarga oid munosabatlar bir qancha qonun-hujjatlari bilan tartibga solinib, amaliyotga joriy etilgan.

Jumladan, yerosti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni (konchilik munosabatlarini) tartibga solish maqsadida qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning asosiy vazifalari mineral xomashyoga bo'lgan talablarni hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun yer qa'ridan oqilona, kompleks foydalanilishini, yer qa'ri, atrof-muhit muhofaza qilinishini, yer qa'ridan foydalanilayotganda ishlarning bexatar olib borilishini ta'minlashdan, shuningdek, yer qa'ridan foydalanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilishdan, shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir [2].

Fikrimizcha, hozirgi kunda yurtimizda yerosti boyliklaridan oqilona foydalanishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari yaratilgan bo'lib, mazkur yo'nalishni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 2023 йил 30 апрель, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6445145>).

2 Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 13 декабрдаги "Ерости бойликлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги 444-II-сонли Қонуни, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси — <https://lex.uz/docs/77871>).





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqoridagi fikrlarimiz davomida mamlakatimizda yerosti boyliklaridan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solish maqsadida tegishli qonun qabul qilinganligini ta'kidlab o'tdik. Mazkur qonunda sohaga doir munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qoidalar, konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi, yer qa'ridan foydalanish masalalari, yerostidan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish hamda yerosti boyliklari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kabi tartib-qoidalar ko'zda tutilgan [3].

Amaldagi qonunchilikda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar, soliq solish obyekti va bazasi, metallarning ayrim turlarini qazib olish (ajratib olish) chog'ida soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari, soliq stavkalari, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi hamda to'lash tartib-qoidalari ko'zda tutilgan [4].

Yurtimizda budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkazilishi mumkinligi ko'zda tutilgan [5].

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ uchun oltin bo'yicha 10 foiz, palladiy, kumush, mis bo'yicha 15 foiz, "Navoiy-uran" DK uchun uran bo'yicha 16 foiz, "O'zbekneftgaz" AJ uchun neft, tabiiy gaz va gaz kondensati bo'yicha 15 foiz miqdorida belgilangan [6].

Joriy yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining bir qator moddalariga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'muriyatchiligining ayrim masalalari yanada takomillashtirildi [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyoslash, solishtirma tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Shuningdek, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha ma'muriyatchilikni tashkil etish yuzasidan amaldagi qonunchilik normalari bo'yicha ayrim masalalar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda budjetga tushgan jami soliq tushumlari 165 918 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 28 079 mlrd so'mi (16,9 %) resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i xissasiga to'g'ri kelgan. Bunda jami tushumdagi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 15 300 mlrd so'mni (9,2 %) tashkil etgan. Shuningdek, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining jami tushumlari tarkibida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 54,5 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, tushgan jami soliq tushumlari joriy yilning 1-choragida 40 328 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 8 072 mlrd so'mi (20,0 %) resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i xissasiga to'g'ri kelgan. Bunda jami tushumdagi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 4 261 mlrd so'mni (10,6 %) tashkil etgan. Bunda, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining jami tushumlari tarkibida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 52,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2-chorak yakuni bo'yicha budjetga tushgan jami soliq tushumlari 45 458 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lib, shundan 8 266 mlrd so'mi (18,2 %) resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i xissasiga to'g'ri kelgan. Mos ravishda jami tushumdagi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 4 104 mlrd so'mni (9,0 %) tashkil etgan. Shu bilan birga, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining jami tushumlari tarkibida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 49,7 % ni tashkil qilgan.

3 Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 13 декабрдаги "Ерости бойликлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги 444-II-сонли Қонуни, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/77871>).

4 Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599 сонли Қонуни билан қабул қилинган Солиқ кодекси, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси — <https://lex.uz/docs/4674902>).

5 Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги ЎРҚ-886-сонли Қонуни (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6707765>).

6 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 29 декабрдаги Ўзбекистон Республикасининг "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-422-сонли қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6721144>).

7 Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 28 декабрдаги "Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-891-сонли Қонуни (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6718864>).

1-jadval. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari haqida ma'lumot<sup>8</sup> (mlrd.so'm).

T/R	Nomi	2023-yil (tushum)	2024-yil (prognoz)	2024-yil 1-chorak (tushum)	2024-yil 2-chorak (tushum)
1	Budjetga tushumlar (jami)	165 918 (100 %)	270 703,1 (100 %)	40 328 (100 %)	45 458 (100 %)
2	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i (jami tushumdagi ulushi)	28 079 (16,9 %)	31 831,3 (11,8 %)	8 072 (20 %)	8 266 (18,2 %)
3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (jami tushumdagi ulushi)	15 300 (9,2 %)	16 684,2 (6,2 %)	4 261 (10,6 %)	4 104 (9 %)
4	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning resurs to'lovlari va mol- mulk solig'i jami tushumidagi ulushi (foizda)	54,5 %	52,4 %	52,9 %	49,7 %

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda budjetga tushgan jami soliq tushumlari 200 703,1 mlrd so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 31 831,3 mlrd so'mini (11,8 %) resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i tashkil qilishi prognoz qilingan. Bunda jami tushumdagi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 16 684,2 mlrd so'mni (6,2 %) tashkil etishi prognoz qilingan. Shuningdek, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining jami tushumlari tarkibida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ulushi 52,4 % ni tashkil etishi prognoz qilingan.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarining davlat budjetida salmoqli hissasi mavjud bo'lib, u budjet daromadlarining muhim fiskal asoslaridan hisoblanadi.

Mazkur maqolani tayyorlash davomida amaldagi qonun-hujjatlarining normalari o'rganilib tahlil qilindi. O'rganishlar davomida yurtimizda yerosti boyliklari ulardan oqilona foydalanish maqsadida davlat muhofazasiga olingani ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Bosh qomusimiz o'rganilganda yerosti boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish maqsadida davlat tomonidan muhofaza qilinishi hamda Hukumat tomonidan tabiiy boyliklarni saqlash sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirishi mustahkamlab qo'yilganligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni o'rganilganda yerosti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni (konchilik munosabatlarini) tartibga solish maqsadida ushbu qonun amaliyotga joriy etilganligi hamda mineral xomashyoga bo'lgan talablarni hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun yer qa'ridan oqilona, kompleks foydalanilishini, yer qa'ri, atrof-muhit muhofaza qilinishini, yer qa'ridan foydalanilayotganda ishlarning bexatar olib borilishini ta'minlash, shuningdek, yer qa'ridan foydalanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilish, shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish mazkur qonunning asosiy vazifalari ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'rganilgan holda tahlil qilinganda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar, soliq solish obyekti va bazasi hamda uni aniqlash tartibi, soliq stavkalari, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi hamda to'lash tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlangani ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni o'rganilganda budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, 2024-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, tumanlar va shaharlar budjetlarining daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash orqali yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarining taqsimlanishi to'g'risidagi qoidalar tartibga solingani ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni o'rganilganda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'muriyatchiligining ayrim masalalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori o'rganilganda ayrim strategik ahamiyatdagi korxonalar bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari belgilanganligi ma'lum bo'ldi.

8 Жадвал маълумотлари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солиқ қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganishlar va tahlillar yakunida yerosti boyliklarini hisobga olish va soliq ma'muriyatchiligining ayrim jihatlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi. Shuningdek, yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish va davlat budjetiga qo'shimcha daromad manbalarini yaratish maqsadlari doirasida amaliyotga joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi amaldagi qonun-hujjatlari o'rganilganda yerosti boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish maqsadida davlat tomonidan muhofaza qilinishi hamda tabiiy boyliklarni saqlash sohalarida yagona davlat siyosati Hukumat tomonidan amalga oshirishi mustahkamlanganligi ma'lum bo'ldi.

Yerosti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni (konchilik munosabatlari) tartibga solish maqsadida "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi Qonun amaliyotga joriy etilgan bo'lib, mazkur qonun yer qa'ridan foydalanuvchilarning huquqlari muhofaza qilinishini, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashi ma'lum bo'ldi.

Yer qa'ridan foydalanish sohasida tabiiy boyliklardan unumli foydalanish ko'nikmalarini yanada oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanib, bu yo'nalishda yuqori natijalarga erishish davlat va jamiyat manfaatlariga birdek ijobiy xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni o'rganilganda budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, 2024-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, tumanlar va shaharlar budjetlarining daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash orqali yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq tushumlarining taqsimlanishi to'g'risidagi qoidalar tartibga solingan ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni o'rganilganda yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq ma'muriyatchiligining ayrim masalalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarori o'rganilganda ayrim strategik ahamiyatdagi korxonalar bo'yicha yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq stavkalari belgilani ma'lum bo'ldi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni va Soliq kodeksining ayrim normalarini mamlakatimiz ma'muriy islohotlari dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qonun-hujjatlariga muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq bo'yicha ko'zda tutilgan soliq ma'muriyatchiligini tartibga solishga oid ayrim qoidalarni takomillashtirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

Bizningcha, mavzu doirasida soliq ma'muriyatchiligining ayrim normalari yanada takomillashtirilishi tadbirkorlik subyektlari va jamiyat manfaatlariga birdek xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 2023 йил 30 апрел, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6445145>).
2. Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 13 декабрдаги "Ерости бойликлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгаришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги 444-II-сонли Қонуни, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси — <https://lex.uz/docs/77871>).
3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599 сонли Қонуни билан қабул қилинган Солиқ кодекси, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси — <https://lex.uz/docs/4674902>).
4. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги ЎРҚ-886-сонли Қонуни (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси — <https://lex.uz/docs/6707765>).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 29 декабрдаги Ўзбекистон Республикасининг "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-422-сонли Қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6721144>).
6. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 28 декабрдаги "Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгариш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-891-сонли Қонуни (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси — <https://lex.uz/docs/6718864>).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

